



Aziza YULDASHEVA,
Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi
E-mail: yuaziza42@gmail.com

Dotsent Sh.A.Rustamova taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF CULTURAL FACTORS IN TRANSLATION

Аннотация

This study is dedicated to analyzing the significance of cultural factors in translation, highlighting the importance of considering cultural differences in the translation process. It thoroughly examines the strategies used by translators, particularly the methods of foreignization and domestication. Additionally, the study explores the influence of cultural factors on various types of texts, including literary, scientific, legal, and audiovisual translations. In today's era of progress, translators must pay attention not only to linguistic aspects but also to the cultural context. Taking cultural differences into account directly affects translation quality and the effectiveness of text reception. This research plays a crucial role in improving translation practices, enhancing translators' cultural competence, and emphasizing the importance of considering cultural differences in the translation process.

Key words: Translation, cultural factors, foreignization, domestication, cultural differences, translation strategies, translator competence, cultural adaptation, translation quality, translation process.

ВАЖНОСТЬ КУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

Это исследование посвящено анализу значимости культурных факторов в переводе, подчеркивая важность учета культурных различий в процессе перевода. Оно тщательно изучает стратегии, используемые переводчиками, в частности методы фореинизации и доместикации. Кроме того, исследование изучает влияние культурных факторов на различные типы текстов, включая литературные, научные, юридические и аудиовизуальные переводы. В сегодняшнюю эпоху прогресса переводчики должны обращать внимание не только на лингвистические аспекты, но и на культурный контекст. Учет культурных различий напрямую влияет на качество перевода и эффективность восприятия текста. Это исследование играет решающую роль в улучшении практики перевода, повышении культурной компетентности переводчиков и подчеркивании важности учета культурных различий в процессе перевода.

Ключевые слова: Перевод, культурные факторы, фореинизация, доместикация, культурные различия, стратегии перевода, компетентность переводчика, культурная адаптация, качество перевода, процесс перевода.

TARJIMADA MADANIY OMILLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu tadqiqot tarjimada madaniy omillarning ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni hisobga olish muhimligini yoritadi. Tarjimonlar tomonidan qo'llaniladigan strategiyalar, xususan begonalashtirish (foreignization) va o'zlashtirish (domestication) usullari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, madaniy omillarning turli turdagi matnlar – adabiy, ilmiy, huquqiy va audiovizual tarjimalarga ta'siri o'rganilgan. Bugungi taraqqiyot davrida tarjimonlar faqat lingvistik jihatlarigagina emas, balki madaniy kontekstga ham e'tibor qaratishlari zarur. Madaniy tafovutlarni hisobga olish tarjima sifati va matnning qabul qilish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot tarjima amaliyotini yanada takomillashtirish, tarjimonlarning madaniy kompetensiyasini oshirish va tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni inobatga olish muhimligini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Tarjima, madaniy omillar, begonalashtirish, o'zlashtirish, madaniy tafovutlar, tarjima strategiyalari, tarjimon kompetensiyasi, madaniy moslashuv, tarjima sifati, tarjima jarayoni.

Kirish. Tarjima – bu nafaqat til, balki madaniyatlar o'rtasidagi ko'prikdir. Turli tillar va xalqlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashda tarjima jarayonining o'rni beqiyosdir. Biroq tarjima faqatgina so'z va grammatik birliklarning aynan to'g'ri uzatilishidan iborat emas. Unda madaniy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimada madaniy o'ziga xoslikni hisobga olmaslik natijasida matn mazmuni buzilishi, so'zlarning noto'g'ri talqin qilinishi yoki hatto kommunikativ xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Shuning uchun tarjimon nafaqat til bilimdoni, balki madaniy tafovutlarni tushunadigan vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim.

Har bir til o'z xalqining tarixi, urf-odatlarini, dini, hayot tarzi va qadriyatlarini bilan bog'liq bo'lib, tarjima jarayonida bularni inobatga olish zarur. Masalan, turli madaniyatlarga oid metaforalar, iboralar va murakkab obrazlar bevosita tarjima qilinsa, ularning mohiyati o'zgarib ketishi mumkin. Shu sababli, tarjimon matnning semantik va pragmatik jihatlariga e'tibor berishi kerak. Ayniqsa, adabiy va hujjatli tarjimalarda madaniy kontekstni saqlash nihoyatda muhim. Masalan, Sharq va G'arb madaniyatlarida muayyan so'z va tushunchalar turlicha talqin qilinishi mumkin.

Tarjimada madaniy moslashuv (adaptatsiya) va ekvivalentlik tamoyillari ham katta rol o'ynaydi. Masalan, kinofilmlar subtitrlari yoki badiiy asarlar tarjimasida milliy koloritni saqlash muhim bo'lsa, ilmiy va huquqiy matnlar tarjimasida aniqlik va neytrallikka urg'u beriladi. Bu jihatlar tarjimonning nafaqat lingvistik bilimiga, balki madaniyatlararo kommunikatsiya bo'yicha chuqur tushunchasiga ham bog'liqdir. Bu esa tarjimonning sifati va muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarjima nazariyasi va amaliyotida madaniy omillarning roli bo'yicha turli tadqiqotchilar muhim fikrlarni ilgari surgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjima jarayonida lingvistik yondashuvdan tashqari, madaniyatshunoslik va semiotika elementlari ham keng o'rganila boshlandi. Masalan, E.Nida [1] tarjimada ekvivalentlik tushunchasini ilgari surib, "formal ekvivalentlik" va "dinamik ekvivalentlik"ni farqlagan. Unga ko'ra, tarjima faqat so'zma-so'z moslik bilan cheklanmasligi, balki madaniy kontekstni hisobga olib, manba matnning ma'nosini to'g'ri yetkazishi lozim.

Xalqaro tarjima tadqiqotlarida madaniy tafovutlarni inobatga olishning ahamiyatini G.Bassnett [5] va I.Even-Zohar [6] o'z asarlarida keng yoritgan. Ular tarjimonni madaniyatlararo

muloqot vositasi sifatida ko'rib, tarjimon faqat lingvistik bilim bilan cheklanmasligi, balki manba va maqsad tillarning madaniy kontekstini ham tushunishi lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, D.Katan va A.Lefevre [7.8] tarjima jarayonini ideologiya va madaniy qadriyatlar bilan bog'laydi hamda tarjimonning shaxsiy dunyoqarashi ham tarjima natijasiga ta'sir qilishini qayd etadi.

Mahalliy tadqiqotlarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda tarjima jarayoni va madaniy o'ziga xoslik masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, K.Jo'rayev[9], G.Salomov[10] va G.Komilova [11] kabi olimlar tarjimada milliy kolorinni saqlash, iboralar va metaforalarni adekvat yetkazish muammolarini tadqiq etganlar. Ularning ta'kidlashicha, madaniy jihatdan boy matnlarni tarjima qilishda ekvivalent so'z topishning o'zi yetarli emas, balki kontekstga mos interpretatsiya zarur.

Adabiy tarjima sohasida madaniy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, N.Venuti[12] tarjimada "o'zlashtirish" (domestication) va "begonalashtirish" (foreignization) strategiyalarini tavsiya etadi. Unga ko'ra, tarjimon matnni qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirish yoki asl madaniy xususiyatlarini saqlab qolish o'rtasida tanlov qilishi kerak. Bu strategiyalar O'zbekistonda ham dolzarb bo'lib, ayniqsa, Sharq va G'arb adabiyotlari tarjimasida ko'p uchraydi.

Shuningdek, multimodal tarjima, ya'ni filmlar, reklama va ommaviy axborot vositalarida tarjima jarayoni ham madaniy omillar bilan bog'liqdir. L.Pérez-González [13] va Y.Gambier [14] kabi olimlar audiovizual tarjimada madaniy jihatlar qanday aks etishi va bu tarjimalarning qabul qiluvchi auditoriyaga ta'siri haqida tadqiqot olib borganlar. Xususan, kinofilmlar subtitrlari va dublyajida madaniy tafovutlar tarjimonlar uchun muhim muammo bo'lib, ba'zan moslashtirish jarayoni mazmunni buzmasligi lozim.

Tarjima jarayonida madaniy omillarning ahamiyati ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Klassik va zamonaviy yondashuvlar madaniyatni tarjimaning ajralmas qismi sifatida ko'rsatib, tarjimonning lingvistik bilim bilan birga madaniy tafovutlarni ham chuqur tushunishi lozimligini ta'kidlaydi. Shu bois tarjima amaliyotida madaniy moslashuv va strategiyalarni to'g'ri tanlash tarjima sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishimizda tarjimada madaniy omillarning ahamiyatini o'rganish uchun sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) tadqiqot usullari qo'llaniladi. Tarjima jarayonida madaniy elementlarning qanday aks etishi, tarjimonlarning qaysi strategiyalarni qo'llashi va madaniy tafovutlarni qanday bartaraf etishi tahlil qilinadi.

Dastlab tarjima nazariyasi va madaniy tafovutlarga oid ilmiy manbalar, monografiyalar va maqolalar o'rganiladi. G. Bassnett, E. Nida, A. Lefevre, N. Venuti kabi olimlarning tarjimada madaniy o'ziga xoslik bo'yicha tadqiqotlari asosiy nazariy manba sifatida foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston va Markaziy Osiyo olimlarining tarjima sohasiga oid ishlari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, turli tillardan tarjima qilingan adabiy, ilmiy va audiovizual matnlarni tahlil qilinadi. Bunda manba matn va tarjima matn o'zaro solishtirilib, madaniy moslashuv (adaptatsiya), begonalashtirish (foreignization) va o'zlashtirish (domestication) strategiyalarining qanchalik qo'llangani o'rganiladi.

Tahlil qilish uchun quyidagi turdagi matnlar tanlanadi:

- badiiy asarlarning original va tarjima variantlari (masalan, o'zbek adabiyotining ingliz yoki rus tiliga tarjimalari hamda xorijiy adabiyotning o'zbek tiliga tarjimalari);
- filmlar va seriallarning subtitrlari va dublyaj variantlari;
- xalqaro hujjatlar va ilmiy maqolalar tarjimalari.

Bu tahlil yordamida tarjimonlar qanday usullarni qo'llangani va madaniy omillar tarjima sifatiga qanday ta'sir qilgani aniqlanadi.

Tarjimonlar, tarjima nazariyotchilari va lingvistlar bilan intervyu o'tkazish va ularning tajribasi asosida tarjimada madaniy omillarni hisobga olish bo'yicha muammolar va yechimlar aniqlash, shuningdek, tarjima sifatini baholash uchun turli auditoriyalar orasida so'rovlar o'tkazish oldimizga qo'yilgan tadqiqni ochishga yordam beradi. Intervyu va so'rovlar orqali quyidagi savollarga javob izlanadi: 1. Tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni qanday hal qilishadi? 2. Qaysi strategiyalar

samaraliroq? 3. Qabul qiluvchi auditoriya tarjimalarni qanday baholaydi? Shu bilan birga, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi. Bu usullar tarjimada madaniy omillarning ahamiyatini chuqur o'rganishga va tarjimonlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tarjimada madaniy omillarning ahamiyatini chuqur tahlil qilish orqali tarjimonlarning qanday strategiyalarni qo'llashi, madaniy tafovutlar tarjima jarayoniga qanday ta'sir qilishi va auditoriya bu tarjimalarni qanday qabul qilishi bo'yicha turli muhim xulosalarga kelindi.

Tarjima jarayonida madaniy o'ziga xosliklarni inobatga olmagan holda amalga oshirilgan tarjimalar ko'pincha noto'g'ri tushunilishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, iboralar, metaforalar, diniy va tarixiy kontekstga ega bo'lgan atamalar tarjima qilinayotganda, madaniy tafovutlar aniq namoyon bo'ladi. Misol uchun, g'arb va sharq madaniyatlari o'rtasidagi turmush tarzi va qadriyatlar sababli, ba'zi matnlarning ma'no va ohangi sezilarli darajada farq qilishi kuzatildi.

Tarjimonlar odatda begonalashtirish (foreignization) va o'zlashtirish (domestication) strategiyalaridan foydalanadi: Begonalashtirish strategiyasi – tarjima matnida manba madaniyatining elementlarini iloji boricha saqlab qolish usuli. Bu strategiya, ayniqsa, adabiy tarjimalarda keng qo'llanadi. Misol uchun, xalq og'zaki ijodi namunalari tarjima qilishda bu usul matnning o'ziga xosligi va original mazmunining buzilmasligini ta'minlaydi. O'zlashtirish strategiyasi – tarjima matnini qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirish. Bu usul ko'proq ommaviy axborot vositalari, filmlar va reklama matnlarida qo'llanadi. Masalan, xalqaro kinofilmlar subtitrlari va dublyajlarida ayrim madaniy elementlar lokalizatsiya qilingan holda beriladi.

Tadqiqot davomida adabiy, ilmiy va huquqiy matnlar tahlil qilinib, ularning tarjimasida madaniy moslashuv darajasi turlicha ekani aniqlandi: Adabiy matnlar – madaniy tafovutlarni hisobga olish va obrazlarni to'g'ri yetkazish talab etiladi. Audiovizual tarjimalar – milliy madaniyatga moslashtirish ko'proq qo'llanadi. Ilmiy va huquqiy matnlar – aniq va universal tarjima talab qilinadi, bu turdagi matnlarda madaniy ta'sir minimal darajada bo'lishi lozim.

Aniqlandiki, tarjima matnlari auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishi tarjimaning madaniy jihatdan moslashganlik darajasiga bog'liq. Begonalashtirish strategiyasi qo'llangan matnlar ba'zi o'quvchilar tomonidan qiyin qabul qilinsa-da, madaniy boylikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. O'zlashtirish strategiyasi esa matnni tushunarliroq qilsa-da, ba'zida original ma'no yo'qolib ketishi mumkin.

Tarjimonlar nafaqat lingvistik bilimga ega bo'lishi, balki madaniy tafovutlarni tushunishi va ularni tarjima jarayonida inobatga olishi lozim. Xususan, tarixiy kontekst, diniy tushunchalar, milliy an'analar va xalqona iboralar tarjimada mos ravishda ifodalanishi kerak.

Tarjima jarayonida madaniy omillar e'tiborga olinmasa, matnning to'g'ri talqin qilinishi qiyinlashadi. Bu ayniqsa badiiy va audiovizual tarjimalarga taalluqli bo'lib, o'quvchi yoki tomoshabin matnni to'g'ri tushunishi uchun muhimdir. Masalan, metafora va iboralarining bevosita tarjimasida o'zbek yoki boshqa sharq madaniyatida ma'no yo'qotilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimonlar matn mazmunini saqlagan holda, uni qabul qiluvchi auditoriya uchun tushunarli tarzda yetkazish usullarini topishi lozim.

Tadqiqot davomida tarjima jarayonida madaniy omillar bilan bog'liq qator muammolar aniqlangan bo'lib, ularning ayrim yechimlari quyidagicha taklif etiladi:

- xalqona iboralar va madaniy jihatdan boy mazmunni yo'qotmaslik uchun muqobil usullardan foydalanish;
- murakkab madaniy elementlarni tushuntirish uchun izoh yoki izohli lug'atlardan foydalanish. Bu ayniqsa tarixiy va falsafiy matnlarda muhimdir;
- audiovizual tarjimalar uchun madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda lokalizatsiya qilish strategiyalarini takomillashtirish.

Tarjimada madaniy omillarning hisobga olinishi nafaqat tarjima sifati, balki uning qabul qilinishiga ham bevosita ta'sir

qiladi. Tarjimon matn turiga va auditoriyaga qarab tegishli strategiyani tanlashi zarur. Shu bilan birga, madaniy tafovutlarni to'g'ri aks ettirish va ularni samarali tarjima qilish uchun tarjimonlar maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.

Kelgusida tarjima amaliyotini takomillashtirish uchun lingvistik va madaniy tafovutlarni o'z ichiga olgan chuqurroq tadqiqotlar olib borish muhimdir. Tarjimaga yangicha yondashuvlar, jumladan, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida madaniy moslashuv jarayonini yanada samarali qilish istiqbollari mavjud.

Xulosa. Tarjima jarayoni faqatgina so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish emas, balki muallifning fikr va tuyg'ularini, shuningdek, matnning ma'naviy hamda madaniy mohiyatini saqlab qolish san'atidir. Har bir til muayyan madaniy muhit va tarixiy an'analarga asoslangan bo'lib, tarjima jarayonida bu omillarni e'tiborsiz qoldirish matn mazmunining buzilishiga yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Madaniy omillarni hisobga olish tarjimaning sifatini oshirishda asosiy o'rin tutadi. Jumladan, ma'lum bir tildagi idiomatik ifodalar, tarixiy va diniy atamalar, kinoya va ramziy

ma'nolarni to'g'ri talqin qilish tarjimonning nafaqat lingvistik bilimiga, balki madaniy savodxonligiga ham bog'liq. Masalan, bir tilda umumiy va tushunarli bo'lgan metafora yoki o'xshatish boshqa madaniyat vakillari uchun begona yoki hatto chalkash bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimon ushbu madaniy tafovutlarni chuqur o'rganishi, kerak bo'lsa, ma'noni aniqroq yetkazish uchun mos ekvivalentlar yoki izohlardan foydalanishi zarur. Shu bilan birga, tarjima qilingan matnning qabul qiluvchi auditoriya uchun tabiiy va tushunarli bo'lishi ham muhimdir. Buning uchun tarjimon matnning janrini, uslubini va maqsadini ham hisobga olishi kerak. Masalan, badiiy asarlar tarjimasida milliy koloriti saqlab qolish muhim bo'lsa, ilmiy yoki huquqiy matnlar tarjimasida aniq va tushunarli ekvivalentlar tanlash lozim.

Umuman olganda, tarjimada madaniy omillarni inobatga olish matnning mazmunini, ifoda uslubini va estetik qimmatini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir tarjima madaniyatlararo muloqot vositasi bo'lib, u xalqlar o'rtasidagi tushunish va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois tarjimon nafaqat til bilimdoniga, balki madaniy vositachiga ham aylanishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Nida, E. A. (1964). *Towards a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. Leiden: Brill.
2. Nida, E. (1964) *Principles of Correspondence*. In: Venuti, L., Ed., *The Translation Studies Reader*, Routledge, London, 126-140.
3. Nida, E.A. and Taber, C.R (1982) *The Theory and Practice Translation*. E.J. Brill, Leiden.
4. Eugene A. Nida. (2001). *Language and Culture-Contexts in Translating*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press
5. Bassnett-McGuire, S *Translation Studies: Revised Edition*, London, Routledge, 1991. First Edition 1980
6. Even-Zohar, I. (1990). *Polysystem Theory*. *Poetics Today*, 11, 9-26.
<https://doi.org/10.2307/1772666>
7. Katan, David *Translating Cultures, An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators*, Manchester, St. Jerome Publishing, 1999, 271 p.
8. André Lefevere, ed. *Translation/History/Culture: A Sourcebook*.
9. London and New York: Routledge, 1992. 182 pp. ISBN 0-415-07697-8 (hdb) / 0-415-07698-6 (pbk) (*Translation Studies*).
10. Jo'rayev K. "Tarjima san'ati" T; Fan nashriyoti. 1982-yil.
11. Salomov G' va boshqalar. "Tarjima mahorati" T; Fan nashriyoti. 1979-yil.
12. Komilova Gulmira Temirovna. *Lingvokulturologiya yangi soha sifatida.* - "Экономика и социум" №12(91) 2021
13. Venuti, L. (1995) *The Translator's Invisibility. A History of Translation*. Routledge, London.
<http://dx.doi.org/10.4324/9780203360064>
14. Pérez-González, L. (2014). *Audiovisual translation: Theories, methods and issues*. Routledge: London. 356 p.
15. Gambier, Yves. (2016). *Translation and Translation Studies at the Crossroads of Digital Communications*. *Vestnik of Saint Petersburg University. Language and Literature*. 13. 56-74. 10.21638/11701/spbu09.2016.405.